

## TILNING ICHKI TUZILISHI. TIL SISTEMASI VA STRUKTURASI

**Mirzamatov Bunyodbek Toshkent Kimyo**

Xalqaro Universiteti Namangan filiali “Tarix”

yo`nalishi uchinchi bosqich talabasi

mirzamatovbunyodbek9@gmail.com

+998 94 785 24 05

Annotatsiya: Tilning ichki tuzilishi, tizimi va strukturasi tilshunoslikda tilning asosiy tarkibiy qismlarini o‘rganishga qaratilgan soha hisoblanadi. Bu tushunchalar fonologiya, morfologiya, sintaksis va semantika kabi tilning strukturaviy elementlarini o‘z ichiga oladi. Fonologiya tilning tovush tizimi va fonemalarning o‘zaro munosabatlarini, morfologiya so‘zlarning tuzilishi va ularning shakllanish qonuniyatlarini, sintaksis esa so‘zlar va gaplar qanday tartibda joylashishini o‘rganadi. Semantika esa til birliklarining ma’nosini o‘rganadi. Ushbu mavzu tilning umumiylashtirishini va uning kommunikativ funksiyalarini tushunishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lib, tilshunoslikning nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi.

Kalit so‘zlar: til sistemi, struktura, fonologiya, fonema, morfologiya, so‘z tuzilishi, sintaksis, gap struktura, semantika, ma’no tizimi, til birliklari, grammatika, lingvistik qoidalar, lingvistik nazariya.

Аннотация: Внутренняя структура, система и организация языка в лингвистике рассматриваются как область, направленная на изучение основных компонентов языка. Эти понятия охватывают такие структурные элементы, как фонология, морфология, синтаксис и семантика. Фонология изучает звуковую систему языка и взаимосвязи фонем, морфология — строение слов и закономерности их образования, синтаксис — порядок расположения слов и предложений. Семантика же занимается исследованием значения языковых единиц. Данная тема имеет важное значение для понимания общей структуры языка и его коммуникативных функций, освещая как теоретические, так и практические аспекты лингвистики.

Ключевые слова: языковая система, структура, фонология, фонема, морфология, строение слова, синтаксис, структура предложения, семантика, система значений, языковые единицы, грамматика, лингвистические правила, лингвистическая теория.

Annotation: The internal structure, system, and framework of language refer to the essential components of language studied in linguistics. These concepts include phonology, morphology, syntax, and semantics, which are the structural elements of language. Phonology examines the sound system of language and the relationships between phonemes, morphology investigates the structure of words and their formation rules, syntax analyzes how words and sentences are arranged, and semantics studies the meaning of linguistic units. This topic is crucial for understanding the general structure of language and its communicative functions, highlighting both the theoretical and practical aspects of linguistics.

Keywords: language system, structure, phonology, phoneme, morphology, word structure, syntax, sentence structure, semantics, meaning system, linguistic units, grammar, linguistic rules, linguistics theory.

Strukturaviy tilshunoslik — tilshunoslik yo‘nalishlaridan biri; tilga nisbatan ilmiy qarashlar va uni tadqiq etish usullari majmui. Tilni aniq, ajralib turadigan struktur (tarkibiy) elementlar (lisoniy birliklar, ularning turkumlari va boshqalar)ga ega bo‘lgan belgilar tizimi tarzida tushunish va tilni qat’iy (aniq fanlarga o‘xshatib) formal tavsiflashga intilish mazkur qarashlar va usullar asosini tashkil etadi. St. o‘z nomini til strukturasiga bo‘lgan alohida e’tibori tufayli olgan. Til strukturasi (tuzilishi) esa, odatda, lisoniy tizimning muayyan sathlar doirasida iyerarxik (pog‘onali) bog‘lanishda joylashgan va tartibga solingan elementlari o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Tilni struktur jixatdan tavsiflash aniq bir matndan umumlashgan invariant (o‘zgarmas) birliklar (ran qoliplari, morfemalar, fonemalar)ni ajratish va ularni aniq, nutqiy bo‘laklar bilan munosabatini qat’iy qo‘llanish qoidalari asosida aniqlashga imkon beruvchi tahlilni talab qiladi.

St. g'oyalari asosida strukturaviy (formal) grammatika yuzaga keldi, mashina tarjimasi bilan bog'liq masalalar kun tartibiga olib chiqildi va ma'lum darajada o'z yechimini topdi. Tilshunoslikda matematik tadqiqot usullarining keng qo'llanishiga imkon tug'ildi. St. garchi 20-asrning 20—30-yilida alohida yo'naliш sifatida shakllangan bo'lsada, uning dastlabki kurtaklari qad. hind tilshunosi Panini asarlarida, o'rta asrlardagi universal grammatikalarda, R.Dekart va G.V.Leybnitsning falsafiy lingvistik grammatikalarida uchraydi. Strukturaviy tilshunoslikning paydo bo'lishida I.A.Boduen de Kurtene, F.F.Fortunatov, E.Sepir, L.Blumfeld, ayniqsa, F.de Sossyurning ilmiy izlanishlari va amaliy faoliyati muhim rol o'yнagan. Strukturaviy tilshunoslikning konsepsiya va metodlari uning ayrim maktablari (Praga lingvistik to'garagi — funksional tilshunoslik; Kopenagen maktabi — glossematja; Amerika maktabi — deskriptiv tilshunoslik) hamda bu maktablarga mansub bo'lmagan E.Benvenist, A.Martine, L.Kurilovich, Ye.D.Polivanov va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan.<sup>1</sup>

Til tizimi — har qanday tabiiy tilning o'zaro munosabatlar bilan bog'langan, muayyan birlik va butunlikni tashkil etuvchi lisoniy unsurlari majmui. Til tizimining har bir tarkibiyqismi alohida alohida emas, balki tizimning boshqa tarkibiy qismlariga qaramaqarshi qo'yilgandagina mavjud bo'ladi.

Til murakkab butunlik bo'lib, uning tarkibiy qismlari sifatida fonologik, leksik (semantik), morfologik, sintaktik va uslubiy (funksional) sathlar ajratiladi. Til tizim (butunlik) tabiatiga egaligi bois uning tarkibiy qismlari ham shunday xarakterda bo'ladi.

Tilning tizim sifatida izoxlanishi F.de Sossyur, V.Gumboldt va boshqa tilshunoslarning asarlaridan boshlangan. Til tizimi haqidagi hozirgi zamon tasavvuri esa o'z ichiga o'zaro aloqador bo'lgan til sathlari, til birliklari, paradigmatic va sintagmatik munosabatlar, tilning belgilar tizimi ekanligi, tilda shakl hamda vazifa (funksiya), struktura va

1 [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Strukturaviy\\_tilshunoslik](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Strukturaviy_tilshunoslik)

substansiya, tilning ichki va tashqi aloqalari, sinxroniya va diaxroniya, analiz va sintez, doimiylik va muvaqqatlik kabi tushunchalarni ham qamrab oladi.2

Tilshunoslikning eng asosiy vazifalaridan biri tilning ichki tuzilishidir. Nutq a'zolarining harakati bilan havo titrashi va uni qulqoq bilan eshitib, miya bilan his etish natijasida insonlar bir-birlari bilan muloqot qiladilar. Inson talaffuz qiluvchi tovushlar boshqa turli tirdagi tovushlardan (masalan, ko'chadagi, musiqa asboblarini chalgandagi va x.k. tovushlardan) tubdan farq qiladi. Bu tovushlar fizik va eshitilish xususiyatlari hamda nutqda birikib aniq ma'no va mazmunga ega bo'lishlari bilan farq qiladilar.

Tilning tovush tomoni uning ifoda jihatini tashkil etadi. Tovushlar va ularning birikmalari inson ongida biror psihik tushuncha bilan bog'lanadi va bu tilning mazmun jihatni deb yuritiladi. Masalan, [ daryo] besh-ta tovush birikmasidan iborat bo'lib, so'zlovchilar ongida "katta suv havzasasi" tushunchasini keltirib chiqaradi. Daryo so'zi tildagi belgi sifatida o'zining ifoda va mazmun jihatlariga egadir. Binobarin, til – belgilar tizimi (sistemasi) bo'lib, insonlarning muhim aloqa vositasidir. Biroq bir tovush alohida holda ma'no anglatmasa belgi bo'la olmaydi. Har bir belgi ifoda va mazmun jihatiga egadir. Biroq tildagi belgilar ko'p bosqichli murakkab tarkibi bilan boshqa belgilardan farq qiladi. Masalan, undov belgisi shartli ravishda yo'lida ehtiyot bo'ling ma'nosini anglatadi. Insonlarning ovozsiz turli imo-ishoralari ham biror tushuncha bilan bog'lanadi. Biroq bu imo-ishora va mimikalarning ifoda jihatni yo'q. Tildagi belgilar murakkab tuzilishi, ifoda va mazmun jihatni bilan farqlanadi. Har bir til bosqichi o'zining birligiga egadir. Quyi bosqich birliklari bir-birlari bilan birikib yuqori bosqich birliklarini hosil qiladi. Tilning eng quyi bosqichi – fonologiya bo'lib, uning birligi - fonema hisoblanadi. Demak, tilning eng kichik ma'nosiz birligi fonemadir. Fonema biryoqlama (yoki faqat ifoda jihatiga ega) birlik bo'lgani uchun belgi bo'la olmaydi. Tilning quyi belgilariga ega bo'lgan bosqichi – morfema bosqichidir. Morfema – tilning ifoda va mazmun jihatlariga ega bo'lgan eng kichik belgidir. Morfemalar ketma-ket birikib tilning kattaroq birliklarini hosil qiladilar. Morfemalar birikib so'zlarni va ularnin turli shakllarini hosil qilishi mumkin. Masalan:

kuch-li sozida kuch- so'zning asosi bo'lib, o'zak morfemani hosil qiladi, unga - li affiksi qo'shilib (uni "affiksal morfema" deb yuritiladi), yangi so'z yasaydi. So'zlar – tilning markaziy birligi bo'lib, ularni biriktirib yana kattaroq til birliklarini hosil qilish mumkin. Bunday birliklar – so'z birikmasi va gap (jumla) hisoblanadi. Tilning so'z bosqichi ham ikkitomonlama – ifoda va mazmun jihatiga ega bo'lgan eng asosiy bosqichdir. Tilning morfema va so'z bosqichlari yuqori bosqichlar hisoblanadi va o'z strukturasiga egadir. Tilning ifoda jihatida morfemalardan quyi bosqich fonema bosqichidir. Fonemalar ketma-ket birikib tilning yuqori bosqichlari birliklarini – morfema, so'z, so'z birikmasi va gapni tashkil etadi. Biroq barcha fonemalar bir-biri bilan tartibsiz birikmaydi. Fonemalarning birikishi har bir tilda o'z tartib va qoidalariiga ega. Fonemalarni yana ham kichik hosil qiluvchi bo'laklarga bo'lish natijasida fonologik farqlanish belgilari bosqichi

2 [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Til\\_tizimi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Til_tizimi)

tashkil bo'ladi. Fonemalarni bir-biridan artikulyatsion – akustik belgilari bilan farqlashga hizmat qiluvchi belgilar farqlanish belgilari deb yuritiladi. (Bu haqda kitobning "Fonetika va fonologiya" bo'limiga qarang). Fonologik farqlanish belgilari tilning ifoda jihat uchun hizmat qiladi. Tilning mazmun jihat ham o'zining quyi bosqichi – semantik (ma'no) farqlash belgilari bosqichiga ega. Masalan, "boshliq" so'zi mazmun jihatidan "bosh" so'zi bilan bog'lanib, "-liq" boshqa so'z yasovchi qo'shimchadir. Binobarin, bu so'z odamlarga yoki bir guruh jamoaga boshliq ma'nosini ifodalaydi va bu uning semantic farqlash belgisidir. Tilning barcha bosqichlarida ulardagi birliklar ma'lum tartibda bir-birlari bilan birikadilar. Har bir til o'z birikuv qonuniyatlariga ega. Bu qonuniyatlar ma'lum andozani (model) tashkil etadi. Biroq bu andoza doim ham o'zgarmas bo'la olmaydi.

Til deb murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Til asosan muloqot vositasi hisoblanadi. Tilni o'rganuvchi sohaga tilshunoslik deyiladi. Jahon tillari miqdorini aniqlash uchun til va sheva orasida farq o'rnatish zarur. Shunga qaramay, tillar soni 6–7 ming orasida, deb hisoblanadi. Tabiiy til so'zlashuv yoki imo-ishora orqali tarqaladi, biroq har qanday til eshitish,

ko‘rish, sezish stimullari yordamida yozuv, braille yoki hushtak kabi ikkilamchi vositaga kodlanishi mumkin. Bu odam tili modallikdan mustaqil bo‘lgani uchun ilojli. Keng ma’noda til atamasi ostida biror muloqot tizimining tayinli qoidalari majmuasi tushuniladi. Barcha tillar semiozisga, ya’ni belgilarni tegishli ma’nolarga bog‘lash jarayoniga tayanadi. Og‘zaki va imo-ishora tillari ramzlar ketma-ketligini so‘z yoki morfema qilib shakllantiruvchi fonologik tizim hamda so‘z va morfemalar ketma-ketligidan ibora va gaplarni hosil qiluvchi sintaktik tizimni o‘z ichiga oladi. Odam tili unumdoorlik, rekursivlik va siljuvchanlik xususiyatlariga ega ekanligi hamda ijtimoiy kelishuv va o‘rganishga butunlay asoslangani uchun unikaldir. Binobarin, uning murakkab tuzilishi hayvonlar muloqotiga nisbatan juda keng ifoda va qo‘llanishlar ko‘lamini beradi. Til erta homininlar asta-sekin primat muloqot tizimlarini o‘zgartira boshlagan paytda, boshqa ongler nazariyasini shakllantirish

qobiliyati va intensionallikni o‘rganayotganida yuzaga kelgan, deb taxmin etiladi.<sup>3</sup>

Tilning ichki tuzilishi tilning asosiy sistemasi va strukturasi bilan bog‘liq bo‘lib, tilshunoslikda uning tuzilishi bir necha asosiy qismga bo‘linadi. Bu bo‘limlar tilni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Tilning ichki tuzilishi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Fonetika. Fonetika tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u tilning tovush tizimini, bu tizim birliklarining fizik-akustik, artikulatsion va lingvistik-funksional jihatlarini o‘rganadi. Demak, tilning tovush materiyasi mazkur fanning tadqiqot obyekti sanaladi. Bu materiya tovush, bo‘gin, urg‘u, ohang (intonatsiya) kabi birliklarni hamda ularning prosodik elementlarini (temp, membr, melodika, ovoz, ton, qo’shimcha ton, shovqin va hokazolarni) o‘z ichiga oladi.

3 <https://azkurs.org/ozbekiston-milliy-universiteti-a-a-abduazizov-tilshunoslik-naz.html?page=53>

Fonetika o'z obyekti va uning birliklarini tadqiq etishda akustik fizika, fiziologiya, anatomiya kabi fanlar bilan hamkorlikda ish ko'radi.

Fonetikaning o'quv predmeti sifatidagi maqsadi talabalarda fonetika bo'yicha tegishli bilim darajasini shakllantirish.

Vazifalaria) fonetik birliklarning (tovush, bo'gin, urg'u, ohangning) yuzaga kelish qonuniyatlarini o'rganish; b) talabalarni yuqoridagi qonuniyatlar va shu qonuniyatlarga oid ilmiy-nazariy fikrlar bilan tanishtirish; d) adabiy tilning fonetik- fonologik tizimiga oid munozarali masalalarni aniqlash, ularga munosabat bildirish; e) talabalarda fonetik tahlil konikmalarini shakllantirish; f) talabalarga shu sohada ishlagan va ishlayotgan fonetist- fonologlar, ularning mazkur sohaga oid ishlari haqida qisqacha ma'lumot berish.

#### Fonetik birliklarning turlari

Segment birliklar- til tovushlari. Ular so'z yoki morfema tarkibida birin- ketin ulanib keladi. Masalan, s+i+n+f sinf, s+i+n+f+d+o+sh> sinf +"-dosh" > sinfdosh kabi. Bunday birliklarni so'z yoki morfema tarkibidan ajratib olish mumkin: katta so'zi k,a,t,t,a tovushlariga, kichik so'zi esa k,i,ch,i,k tovushlariga ajralgani kabi. Bulardagi har bir tovush (ajratilgan qism) mikrosegment sanaladi (yunoncha: mikros- "kichik" + lotincha: segmentum- "kesik", "bo'lak"). Aslida nutq oqimining

talaffuzdagi bo'linishlari katta bo'lakdan (makrosegmentdan) kichik bo'laklarga (mikrosegmentlarga) qarab taqsimlanib boradi: fraza (makrosegment), takt, fonetik so'z, bo'g'in va tovush (mikrosegmentlar) kabi. Demak, til ana shu bo'linishning eng so'ngisi (boshqa bo'laklarga ajralmaydigani)dir.

Fonologiya. Fonologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning tovush materiyasi taraqqiyotini va shu materiyaning fonologik sistemaga uyushish qonuniyatlarini hamda tildagi vazifalarini tadqiq qiladi.

Fonologiyaning o'ziga xos jihatni shundaki, u o'z obyektini semiologik aspektda (semantik darajadagi birliklarni farqlovchi belgilarni tizimi sifatida) o'rganadi, uning

ilmiy-nazariy umumlashmalari dialektik fikrlashning asosiy qonunlari va dialektika kategoriyalariga tayanadi.

Tilshunoslikda fonologiya ikki turga supersegmental fonologiyaga ajratiladi. segmental fonologiya va

1. Segmental fonologiya tilning segment fonemalari bilan shug'ullanadi, shunga ko'ra u fonemika (yoki fonematika) deb ham ataladi.

Izoh: fonemalar so'z tarkibida birin-ketin joylashadi, o'zaro zanjirsimon ulanib keladi, ayni shu xususiyat fonemalarning segment birliklar ekanligini belgilaydi. Masalan, a+t+1+a+ s

> atlas, k+a+t+t+a> katta kabi.

2. Supersegmental fonologiya tilning supersegment birliklari sillabema, aksentema, intonema va ularning prosodik elementlari masalalari bilan shug'ullanadi, shunga ko'ra u prosodiya (yoki prosodika) deb ham yuritiladi.

Izoh: supersegment birliklar til va nutqda ustama hodisa sifatida ishtirok etadi. Masalan, aksentema (so'z urg'usi, sintagma urg'usi, ayiruv urg'usi) yoki intonema (ohang, uning turlari, prosodik elementlari) shu xususiyatga ega: yangi (sifat: "yangi xabar") - yángi (ravish: "yangi kelib ketdi") kabi. Bu ikki so'zning ma'nolarini farqlashda so'z urg'usi ustama hodisa (supersegment fonema) sifatida ishtirok etgan. Intonema, uning prosodik elementlari (ton balandligi, cho'ziqligi, kuchi, temp, membr va boshqalar) esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka ko'ra turlarini faqlashda ustama hodisa (supersegment fonema yoki supersegment morfema) sifatida qatnashadi.

Fonologiyaning xulosalari fonetikaning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va perceptiv aspektlarida to'plangan tajriba va ma'lumotlarga asoslanadi. Bu hol ham fonologiya bilan akustik fonetika, artikulatsion fonetika va perceptiv fonetika o'rtasida uzviy aloqa borligidan dalolat beradi.

Leksikologiya. Obyekti-tilning lug'at boyligi va uning asosiy birligi bo'lgan so'z.

Predmeti: a) so'z va leksema munosabatlari, leksemaning lug'aviy birlik sifatidagi belgi- xususiyatlari, lisoniy va nolisoniy omillarga munosabati muammolari bilan shug'ullanish;

b) lug'at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa sathlari (fonetik sath, grammatic sath) bilan aloqlarini, shuningdek til leksikasidagi jarayonlarda lisoniy va nolisiniy omillar ishtirokini tadqiq qilish.

Maqsadi -talabalarda leksikologiya bo'yicha mustahkam bilim darajasini, shuningdek, leksik-semantik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish.

Vazifalari: a) so'z va leksema munosabatlarini, leksemaning asosiy lug'aviy birlik sifatidagi belgi-xususiyatlarini, ma'no va tushuncha o'rtasidagi umumiy va farqli

jihatlarni, leksik ma'no tiplarini aniqlash; b) turli leksik-semantik guruhlardan har birida shu guruh a'zolari o'rtasida shakllangan sistemaviy munosabatlar turini belgilash, shu masalalarga oid fikrlar, qarashlar bilan yaqindan tanishib chiqish; b) muayyan tilning lug'at boylidagi eskirish va yangilanish jarayonlari, bu jarayonlarda lisoniy va nolisoniy (lingvistik va ekstralingvistik) omillarning ishtirokini o'rganish; d) lug'aviy birliklarning funksional-semantik tavsifini berish, ularning lisoniy birlik va uslubiy vositalar sifatidagi xususiyatlarini yoritish; e) lug'at boylidagi eskirgan, yangi va zamonaviy qatlamlarni, tematik guruhlar va mikrosistemalarni aniqlash.<sup>4</sup>

Morfonologiya. Ma'lumki, fonema varianti so'z va morfema tarkibida uni tashkil etuvchi sifatida ishtirok etar ekan, boshqa tovush bilan kombinatsiya hosil qilish jarayonida va

4 Hasanboy Jamolxonov – “Hozirgi o'zbek adabiy tili”. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti – 2013. 30- 229 p

pozitsion omil ta'sirida turli o'zgarishlarga uchraydi har xil morfem variant vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Substansial yondashuvda esa variantlashuv va nutq sharoitiga mos variantning tanlanishi tilning tarkibiy qismi bo'lgan me'yorga daxldorligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

So'z invariant allovariant variant munosabati xususida ketar ekan, morfema variantlashuvining:

1) sof fonetik (orttirma nisbat shakllari: -dir-tir, -kaz-qaz; o'zlik va majhul nisbat shakllari:

-in--1, -in-1:

2) morfologik (kesimlik shakllari: -man, -m: -miz, -k;edi, di);

3) funksional-sintaktik (orttirma nisbat shakllari: -kaz--dir. - sat--r,

4) leksik (kichraytirish shakli: -choq, chak) kabi turlari mavjud bo'lib, bu variantlarni ikki:

a) asemantik (sof fonetik);

b) semantik (morfologik, funksional-sintaktik, leksik) turga ajratish mumkin.

So'z va morfema tarkibidagi har qanday tovush almashinuvi, avvalo, fonetik-fonologik tabiatli, semantik qiymatga ega emas. Morfonologiya morfemik-morfologik variantning ana shu ko'rinishlari voqelanishining me'yoriy jihatini tekshiradi. Bu esa bugungi kunda til strukturasining fonetik, leksik va morfemik sathlari oralig'ida ajratilayotgan morfonologiyaning aslida fonetika-fonologiya doirasida qaralishi lozimligini ko'rsatadi.

O'zbek substansial tilshunosligi tilning lison-nutq bo'linishida morfonologiyani me'yorda, sathdagi o'rnini esa fonologiyada ko'radi

Sintaksis. Sintaksis grekcha so'zdan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi tuzish degan tushunchaga to'g'ri keladi. Sintaksis grammatikaning bir qismi bo'lib, gap qurilishi haqidagi ta'lilotdir. Gap va uning logik- grammatic tiplari sintaksisning o'rganish ob'yektidir. So'z birikmalari va gap bo'laklari gap qurilishining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Gapda so'zlarning o'zaro sintaktik aloqaga kirish usullari sintaksisning "So'z birikmasi" bahsining ob'yekti hisoblanadi.

Sintaksis grammatikaning ikkinchi qismi morfologiya bilan uzviy bog'liqdir. Morfologiya va sintaksis bir-birini to'ldiradi. Sintaktik kategoriyalar ko'pincha morfologiya bilan bog'liq holda o'rganiladi. Masalan, sodda gaplar paradigmasi

morfologik kategoriyalar asosida bayon qilinadi. Ba'zi til hodisalari (kelishiklar, yordamchi so'zlar) ham morfologiyada, ham sintaksisda o'rganiladi. Demak, sintaksis so'z birikmalarini, gap qurilishi va grammatik xususiyatlarini, gap turlarini, gap bo'laklarini, bu bo'laklarning o'zaro birikish yo'llarini o'rganadi.

5 R.R. Sayfullayev, B.R. Mengliyev va boshqalar – “Hozirgi o'zbek tili”. Innovatsiya-Ziyo – 2020. 75-76 p

Asosiy sintaktik birliklar bo'lib so'z birikmasi va gap (sodda gap, qo'shma gap yoki murakkab sintaktik qurilma) hisoblanadi.6

Xulosa. Tilning ichki tuzilishi, tizimi va strukturasi tilshunoslikda tilni to'liq tushunish uchun muhim ahamiyatga ega. Tilshunoslikda fonologiya, morfologiya, sintaksis va semantika kabi bo'limlar tilning tuzilishini va uning ishlash prinsiplarini o'rganadi. Bu bo'limlar tilning tovush tizimi, so'zlar tuzilishi, gaplar tuzish qoidalari va ma'no qatlamlarini tahlil qiladi.

Tilning ichki tuzilishini o'rganish nafaqat tilning nazariy jihatlarini, balki uning amaliy funksiyalarini ham tushunishga yordam beradi. Tilning tovush tizimi, so'z shakllari, gaplarning tuzilishi va ma'no ifodalash usullari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tilning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Tilshunoslikdagi ushbu asosiy bo'limlar orqali tilni o'rganish va uni to'g'ri tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga, tilning o'zgarishlarini va taraqqiyotini aniqlashda ham bu bo'limlar muhim rol o'yнaydi. Tilni chuqur o'rganish tilning strukturaviy va kommunikativ funksiyalarini yaxshilashga yordam beradi, bu esa til o'rgatish va o'rganish jarayonlarini samarali olib borishga imkon yaratadi.

6 I. Yo`ldashev, S. Muhamedova, O`. Sharipov, R. Majidova – “Tilshunoslik asoslari”. Innovatsiya-Ziyo -2024. 197 p

Foydalangan adabiyotlar:

1. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Strukturaviy\\_tilshunoslik](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Strukturaviy_tilshunoslik)
2. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Til\\_tizimi](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Til_tizimi)
3. <https://azkurs.org/ozbekiston-milliy-universiteti-a-a-abduazizov-tilshunoslik-naz.html?page=53>

4. Hasanboy Jamolxonov – “Hozirgi o’zbek adabiy tili”. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashryoti – 2013. 30- 229 p
5. R.R. Sayfullayev, B.R. Mengliyev va boshqalar – “Hozirgi o’zbek tili”. Innovatsiya-Ziyo – 2020. 75-76 p
6. I. Yo`ldashev, S. Muhamedova, O`. Sharipov, R. Majidova – “Tilshunoslik asoslari”. Innovatsiya-Ziyo -2024. 197 p